

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

-She'rning davomini o`ylab toping.Keyingi voqealar rivoji qanday davom etishini o`ylab ko`ring.

-She'rdagi qaysi misra sizga ko`proq yoqdi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish.

She'rni ifodali o`qing, she'r mavzusiga mos rasm chizing.

14-mavzu: "Odob". Hikoya (Muhabbat Hamidova)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiylar: O`quvchilarini hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,hikoyani ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: O`quvchilarga kattalarni hurmat qilishni, odobli bo`lishni,odob-axloq qoidalariga rioya qilishni o`rgatish,ularni yaxshi insoniy fazilatlarga ega qilib tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: O`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi:Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,savol-javob, "Aqliy hujum" usuli, "Maqollar zanjiri" ta'limiylarini o`ynishi.

Dars jihosi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarini darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o`tkazish.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Baliq ovida" she'rinin o'quvchilar yoddan aytib beradilar.

"Aqliy hujum" usuli.

- 1.**Bolalar qayerga borishdi?
- 2.**Baliq tutuvchi asbobning nomi nima?
- 3.**Baliq oviga kim bormadi?
- 4.**Dilshodning xo'rragiga nima ilindi?
- 5.**Bolalar baliq ovidan qachon qaytishdi.

III.Yangi mavzu bayoni.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:**"Odob" hikoyasi.** Hikoya muallifi Muhabbat Hamidova haqida ma'lumot beriladi.

Muhabbat Hamidova

Muhabbat Hamidova – jurnalist, O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,"Shuhrat" medali sohibasi.U bolalarning sevimli jurnali – "Gulxan"da 46 yildan ziyod faoliyat yuritib, shu yerda kamol topgan.Uning "Vaziyat o`zgardi", "O`rganib ketadi", "Odamning o`rni" nomli hikoya va asarlari keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo`lgan.

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi.
Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Dabdurstdan – to`satdan

Durust – yaxshi

"**Odob**" hikoyasi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.


IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

- 1.Hikoyani qisqacha so`zlab bering.
- 2.Muallif hikoya orqali nima demoqchi bo`lgan?
- 3.Hikoya qahramonlari haqida fikringiz qanday?
- 4.Sizningcha, Madina qanday qiz? Uning fikrlari sizga yoqdimi?
- 5.Nima uchun Madina maktabga bormadi? U to`g`ri ish qildimi?
- 6.Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

"Maqollar zanjiri" mashqi.

O`quvchilar odob haqida maqollar aytadilar.



Mashq daftari bilan ishlash.

1-topshiriq. "Odob" hikoyasidan parchada tushirib qoldirilgan so`zlarni o`z o`rniga qo`ying. Mahalladagi ayollar Karima opoqi nevarasini "qovurib" olgan,

deb kulishadi. Mavjuda kelinoying sigir sog'yapti, **Halima opang** nonushta tayyorlayapti.


Qachondan buyon savob bilan gunohni ajrata qolding, qaqajon, – bo`sh kelmadi **Matluba kelinoyi**.

2-topshiriq. Sinkveyn tuzing.

Nima? **Odob** Qanday? **Yaxshi**, go`zal Nima qiladi? Tarbiyalaydi, bezaydi, o`rgatadi Gap: **Odobli bola elga manzur**. Ma'nodosh so`z: **Axloq**.

3-topshiriq. Hikoya matnidan rost va yolg'on ifodalangan gaplarni topib yozing. O`quvchilar mustaqil bajaradilar.

4-topshiriq. Odobli bolaning fazilatlarini sanang.



5-topshiriq. Rasmga qarab, kichik hikoya yozing. O`quvchilar berilgan rasm asosida mustaqil bajaradilar.



V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

- Hikoya sizga yoqdimi?

-Madina to`g`ri ish qildimi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. Hikoyani ifodali o`qing.Insoniy fazilatlar haqida klaster tayyorlang.